

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”
Qo‘qon davlat universiteti
rektori D.Sh.Xodjaeva
30-iyun 2025-yil

RAQAMLI TARIX
FANI DASTURI

Bilim sohasi:	200000 - San‘at va gumanitar fanlar
Ta‘lim sohasi:	220000 – Gumanitar fanlar (tillardan tashqari)
Ta‘lim yo‘nalishi:	60220300 – Tarix

Qo‘qon-2025

Fan/modul kodi RT1405		O'quv yili 2025-2026	Semestr 4	ECTS - Kreditlar 5	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Raqamli tarix	60		90	150

2.	I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarda raqamli tarix fanining ning vazifasi, predmeti va obyekti, mazkur sohaga dunyoning rivojlangan mamlakatlaridagi yondashuvlar, fan sohasidagi samarali loyihalar bilan tanishtirish, fanning nazariy masalalarini, mazkur fanga oid maxsus tadqiqotlarni har tomonlama ilmiy-qiyosiy tahlil qilishga oid bilim, ko'nikma va malakalami shakllantirishdir. Fanning vazifasi - Fanning vazifasi – talabalarga tarixiy jarayonlarni anglashda raqamli texnologiyalarining o'zni, fan masalalarini yechishda zamonaviy yondashuvlar, tarixiy voqealarni, faktlarni o'rganishda, tarixiy tadqiqotda elektron manbalarning hamda internetning ilmiy va amaliy ahamiyatini hamda fan doirasidagi zamonaviy loyihalar kabi masalalar ahamiyatini tushuntirishdan iborat. Fanning asosiy manbalari: Har bir fan, tarix fani sohasi o'z manbalariga ega bo'lib, Raqamli tarix faniga oid tadqiqot metodlari, ilmiy adabiyotlar fanning manbalari bo'lib hisoblanadi. Raqamli tarix manbalari deganda shu fanning vujudga kelishi uning bugungi insoniyat hayotida tutgan o'zni, tarixiy-ilmiy tadqiqotlarda foydalanish metodlari tushuniladi. Fanning yetakchi TOP-300 xalqaro universitetlari dasturi asosida tayyorlanganligi: Raqamli tarix fani dasturi dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan biri bo'lgan Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti (Rossiya)ning Tarixiy informatika fanining o'quv dasturi asosida takomillashtirilgan. Mazkur universitet QS World University Rankings 2024 bo'yicha 94-o'rinni egallagan bo'lib, tarix sohasi bo'yicha yuqori malakali ilmiy-uslubiy bazaga ega. Dasturda quyidagi asosiy jihatlar inobatga olingan: Nazariy va amaliy yondashuv uyg'unligi – Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti (Rossiya)ning Tarixiy informatika fani yuzasidan nazariy bilimlar bilan bir qatorda, raqamli tarix fani mavzulari ham keng yoritiladi. Xalqaro standartlarga muvofiqlik – dastur Lomonosov nomidagi Moskva
-----------	---

davlat universiteti (Rossiya)ning Tarixiy informatika fani dasturi asosida boyitilgan.

Tanqidiy fikrlash va tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish – talabalar raqamli tarix faniga oid ma'lumotlarni mustaqil tahlil qilish, dalillarga asoslanib xolis tarixiy xulosa chiqarishni o'rganadilar.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II. I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Kirish. Fanning maqsadi va vazifalari

Fanning tarixiy tadqiqotlar tizimida tutgan o'rni. Fanning maqsadi, vazifalari. Fanga oid tamoyil va yangicha yondashuvlar. Fanning boshqa fanlar bilan aloqadorligi. Jamiyatni axborotlashtirish zamonaviy rivojlanishning asosiy tendentsiyalaridan biri sifatida. Ijtimoiy informatika va jamiyatni axborotlashtirish qonuniyatlarini tushunish. Tarixiy tadqiqotlarda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning asosiy yo'nalishlari.

2-mavzu. Raqamli tarix fanining shakllanishi va taraqqiyoti

“Digital History” (Raqamli Tarix) tushunchasi. “Tarixiy informatika” yo'nalishi. Digital History tadqiqot doirasi, rivojlanish tarixi. Xorij tajribasi. Tarixiy tadqiqotlarda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish tajribasi, 60-yillar - 80-yillarning o'rtalari – katta kompyuterlar davri. 80-yillarning oxiri - 90-yillarning boshi - “Mikrokompyuter inqilobi”. Tarixiy informatikaning tuzilishi va mazmuni. Tarixiy informatikaning amaliy va nazariy komponentlari.

3-mavzu. Tarix fanida axborot texnologiyalarining qo'llanilishi

Tarix fanida axborot texnologiyalari fani taraqqiyoti. Tarix va informatika. Tarixiy tadqiqotlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish tajribasi hamda rivojlanish tendentsiyalari.

4-mavzu. Elektron manbalarning tarixiy tadqiqotlardagi ahamiyati

Manbalar va ularning xususiyatlari. Matnli manbalar, Statistik manbalar.

Kartografik manbalar. Tasviriyl manbalar. "Kompyuter manbashunosligi"ning vujudga kelishi. Tarixiy manbalar va zamonaviy axborot texnologiyalari.

5-mavzu. Tarixiy tadqiqotlarda elektron matnning o'rnini

Elektron matn konsepsiyasi. Elektron matnni rasmiylashtirish talablari. Ilmiy maqola va tezislarni nashrga tayyorlash. Ilmiy matnni tayyorlashda zamonaviy dasturlarning imkoniyatlari.

6-mavzu. Tarix ta'limida elektron taqdimot ahamiyati

Elektron taqdimot: umumiy tushuncha, tuzilishi. Taqdimot tayyorlash uchun maxsus dasturlar va ularning imkoniyatlari. Tarixiy jarayonlarni anglash hamda o'qitishda elektron taqdimotlarning o'rnini va ahamiyati.

7-mavzu. Internet va uning tarixchi uchun imkoniyatlari

Internet vujudga kelishi va shakllanishi. Internet ma'lumotlaridan ilmiy tadqiqotda foydalanish muammolari. Tarixchi mutaxassislar uchun internet axborot resurslari. Ilmiy tadqiqot natijalarini internet orqali e'lon qilish. Telnet - foydalanuvchiga kutubxona kataloglari, ma'lumotlar bazalari va boshqa axborot resurslari bilan ishlash imkonini beruvchi Internet resurslariga masofadan kirish vositasi. Internetdan arxiv manbalarini qidirish. Chet mamlakatlardagi yetakchi kutubxonalarning elektron kataloglari bilan ishlash.

8-mavzu. Tarixiy tadqiqotda qidiruv tizimlaridan foydalanish

Qidiruv tizimlari. Qidiruv so'rovlari tuzilishi. Internetda samarali qidiruv muammolari. Google Scholar va uning ahamiyati. Elektron lug'atlar, tarjimonlar va ensiklopediyalar, ularning tarixchi uchun ahamiyatli jihatlari.

9-mavzu. Elektron kutubxonalar va arxivlar bilan ishlash

Tarix sohasiga oid elektron kitoblarning tarixiy bilimlarni egallashdagi roli. Elektron kutubxona tushunchasi. Elektron kutubxona ahamiyati. Tarixiy tadqiqotlarda elektron kutubxona materiallaridan foydalanish. Elektron arxivlar va ularda foydalanish afzalliklari.

10-mavzu. Tarixchi va sun'iy intellekt

Sun'iy intellekt tushunchasi. Sun'iy intellekt: tarixi va rivojlanish bosqichlari. Tarix sohasidagi tadqiqotlarda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish.

11-mavzu. Geografik axborot

tizimlari. Google Earth dasturi va uning ahamiyati.

Geografik axborot tizimlari. Xaritalar turlari: geografik, siyosiy, tarixiy-madaniy yodgorliklar xaritalari. Geografik axborot tizimlari dasturlari. Google

Earth dasturi haqida umumiy ma'lumot. Google Earth dasturidan foydalanish va uning ahamiyati.

12-mavzu. Tarixiy jarayonlarni modellashtirish va qayta tiklash.

Tarixiy jarayonlarni modellashtirish va qayta tiklash tushunchalari. Modellashtirish va qayta tiklash asoslari. Tarixiy jarayonlarni modellashtirish va qayta tiklash metodlari hamda usullari.

13-mavzu. 3D modellashtirishning tarixiy tadqiqotlarda qo'llanilishi

Tarixiy tadqiqotlarda 3D modellashtirish masalasi: shakllanishi va rivojlanishi. Tarixiy tadqiqotlarda 3D modellashtirish texnologiyasining ahamiyati. 3D modellashtirish texnologiyasi dasturlari.

14-mavzu. Virtual muzeylar va ularning ahamiyati

Virtual muzey tushunchasi. Virtual muzeylar shakllanishi. Virtual muzey afzalliklari. Tarixni o'rganishda virtual muzeylarning o'рни. Virtual muzey eksponatlari.

15-mavzu. Masofaviy ta'lim va uning ahamiyati

Masofaviy ta'lim tushunchasi. Masofaviy ta'limning shakllanishi va rivojlanishi tarixi. An'anaviy va masofaviy ta'lim. Masofaviy ta'limda axborot texnologiyalarining o'рни.

Mavzu. Kirish. Fanning maqsadi va vazifalari

Fanning tarixiy tadqiqotlar tizimida tutgan o'рни. Fanning maqsadi, vazifalari. Fanga oid tamoyil va yangicha yondashuvlar. Fanning boshqa fanlar bilan aloqadorligi. Jamiyatni axborotlashtirish zamonaviy rivojlanishning asosiy tendentsiyalaridan biri sifatida. Ijtimoiy informatika va jamiyatni axborotlashtirish qonuniyatlarini tushunish. Tarixiy tadqiqotlarda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning asosiy yo'nalishlari.

Mavzu. Raqamli tarix fanining shakllanishi va taraqqiyoti

"Digital History" (Raqamli Tarix) tushunchasi. "Tarixiy informatika" yo'nalishi. Digital History tadqiqot doirasi, rivojlanish tarixi. Xorij tajribasi. Tarixiy tadqiqotlarda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish tajribasi, 60-yillar - 80-yillarning o'rtalari – katta kompyuterlar davri. 80-yillarning oxiri - 90-yillarning boshi - "Mikrokompyuter inqilobi". Tarixiy informatikaning tuzilishi va mazmuni. Tarixiy informatikaning amaliy va nazariy

komponentlari.

Mavzu. Internet va uning tarixchi uchun imkoniyatlari

Internet vujudga kelishi va shakllanishi. Internet ma'lumotlaridan ilmiy tadqiqotda foydalanish muammolari. Tarixchi mutaxassislar uchun internet axborot resurslari. Ilmiy tadqiqot natijalarini internet orqali e'lon qilish. Telnet - foydalanuvchiga kutubxona kataloglari, ma'lumotlar bazalari va boshqa axborot resurslari bilan ishlash imkonini beruvchi Internet resurslariga masofadan kirish vositasi. Internetdan arxiv manbalarini qidirish. Chet mamlakatlardagi yetakchi kutubxonalarning elektron kataloglari bilan ishlash.

III. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Kirish. Fanning maqsadi va vazifalari
2. Raqamli tarix fanining shakllanishi va taraqqiyoti
3. Tarix fanida axborot texnologiyalarining qo'llanilishi
4. Elektron manbalarning tarixiy tadqiqotlardagi ahamiyati
5. Tarixiy tadqiqotlarda elektron matnning o'rni
6. Tarix ta'limida elektron taqdimot ahamiyati
7. Internet va uning tarixchi uchun imkoniyatlari
8. Tarixiy tadqiqotda qidiruv tizimlaridan foydalanish
9. Elektron kutubxonalar va arxivlar bilan ishlash
10. Tarixchi va sun'iy intellekt
11. Geografik axborot tizimlari. Google Earth dasturi va uning ahamiyati.
12. Tarixiy jarayonlarni modellashtirish va qayta tiklash.
13. 3D modellashtirishning tarixiy tadqiqotlarda qo'llanilishi
14. Virtual muzeylar va ularning ahamiyati
15. Masofaviy ta'lim va uning ahamiyati

	IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar <i>Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:</i> 1. Raqamli tarix fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi. 2. "Tarix va kompyuter" assotsiatsiyasi faoliyati yuzasidan taqdimot tayyorlash. 3. Google Earth dasturidan foydalangan holda tarixiy-madaniy yodgorliklarni aniqlash (hududlar kesimida). 4. O'zbekiston tarixi fani doirasida mediaensiklopediya tuzish. 5. O'zbekiston tarixining turli davrlariga oid elektron kitoblar bibliografiyasini shakllantirish. 6. Tarixiy obidalarni 3D modellashtirishning ahamiyati. 7. Kichik virtual muzey loyihasini shakllantirish. 8. Tarixchi va sun'iy intellekt mavzusida maqola tayyorlash. 9. Elektron manbalarning tarixiy tadqiqotlardagi ahamiyati 10. Tarixiy tadqiqotlarda elektron matnning o'rni 11. Tarix ta'limida elektron taqdimot ahamiyati 12. Internet va uning tarixchi uchun imkoniyatlari 13. Tarixiy tadqiqotda qidiruv tizimlaridan foydalanish 14. Elektron kutubxonalar va arxivlar bilan ishlash10. Tarixchi va sun'iy intellekt 15. Geografik axborot tizimlari. 16. Google Earth dasturi va uning ahamiyati. 17. Tarixiy jarayonlarni modellashtirish va qayta tiklash. 18. 3D modellashtirishning tarixiy tadqiqotlarda qo'llanilishi14. Virtual muzeylar va ularning ahamiyati
3.	V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: tarix fani sohasida innovatsiyalar, raqamli texnologiyalarning tutgan o'rni haqida muayyan tasavvurga ega bo'lishi; zamonaviy axborot texnologiyalarining umumiy imkoniyatlarini, tarix sohasida ulardan foydalanish afzalliklarini bilishi kerak; axborot texnologiyalari yordamida tarixiy ma'lumotlar va manbalarni qidirish, qayta ishlash hamda tahlil qilish; talaba elektron ma'lumotlarni ilmiylik, tarixiylik, xolislik metodlari asosida o'rganish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak; internet imkoniyatlaridan foydalanish, tarix ta'limi va tarixiy tadqiqotlarda raqamli texnologiyalardan foydalana olish malakalariga ega bo'lishi kerak.

4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: ma'ruzalar; seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish; interfaol keyslar; seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); guruhlarda ishlash; taqdimotlarni qilish; individual loyihalar; jamo bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
----	---

5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish.
6.	Asosiy adabiyotlar 1. Мўминов Х. Рақамли тарих. Дарслик. – Тошкент, 2022. 2. Tog‘ayev J.E. Raqamli tarix. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: Tamaddun, 2024. 3. Qo‘shimcha adabiyotlar 4. Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. – Toshkent: O‘zbekiston, 2024 5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik. T.5 – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. 6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashr. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. 7. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. Тошкент.: Ўзбекистон. 2017. 8. Алимова Д.А., Илҳомов З.А. Тарих фани методологияси. – Т. 2018. 9. Муслимов Н., Сайфуров Д., Усмонбоева М., Тўраев А. Web технология асосида электрон ахборот таълим ресурсларини яратиш ва уларни амалиётга жорий этиш. Тошкент. 2015. 10. Қосимов С.С. Ахборот технологиялари. Т., 2006. 11. Тоғаев Ж.Э. Бронза ва илк темир даври тарихий реконструкцияси масалалари (Жанубий Ўзбекистон мисолида). – Тошкент, 2020. 12. Rasulov A. Tarix fani tadqiqotlarining asoslari va uslubiyoti. Toshkent: Turon-Iqbol, 2021 13. Хроленко А. Т., Денисов А.Т. Современные информационные технологии для гуманитария. – М.: Флинта: Наука, 2012. 14. Информационные технологии для историков/ Учебное пособие/ Под ред. Л.И.Бородкина. – М. МГУ, 2006. 15. Boonstra O., Breure L., Doorn P. Past, Present and Future of historical information Science. Netherlands Institute for Scientific Information. 2004. 16. Гарскова И.М. Историческая информатика: эволюция междисциплинарного направления.- СПб.: Алетей, 2018.

	Axborot manbaalari 1. http://raqamlitarix.uz 2. http://www.ziyonet.uz 3. http://www.google.scholar.com 4. http://www.history.ru 5. http://www.archeologia.ru 6. http://www.archeo.ru 7. http://www.iprbookshop.ru 8. http://3darchaeology.3dn.ru/ 9. http://www.biblio-online.ru 10. https://surxon-turizm.uz/ 11. https://vrmuseum.uz/ 12. https://www.hist.msu.ru/Labs/HisLab/html/pr_inf_mat.htm
7.	Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025-yil 30-iyundagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.
8.	Fan/modul uchun ma’sul: Nuridinov Turdali Qambarovich “Tarix” kafedrası mudiri, tarix fanlari bo‘yicha falasafa doktori (PhD). Baxridinov Qahramon Nabiyevich – Tarix kafedrası katta o‘qituvchisi.
9	Taqrizchilar: Yo.R.Tayronov – TDPU, “Jahon tarixi” kafedrası mudiri, t.f.n dotsent. S.S. Xamraqulov – Qo‘qon davlat universiteti “Tarix” kafedrası katta o‘qituvchisi, t.f.b.f.d(PhD).